



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 5-avgust, shanba,
93 (23.814)-son

**KUN
HIKMATI**

Farzandimizning
bilim olishiga
sharoit yaratishni
o'ylab, unga
tarbiya berishni
unutib qo'ydik

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



BUYUK BRITANIYA TIBBIYOTCHILARI

SAMARQANDLIK HAMKASBLARI BILAN HAMKORLIKDA ISHLAYDI

Viloyat hokimi E.Turdimov Buyuk Britaniyadan kelgan tibbiyot sohasi mutaxassislari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda sog'liqni saqlash sohasida, xususan, Samarqand va Buyuk Britaniya tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shahzoda Charlz kasalxonasining shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha maslahatchisi Tayman Voheed Londondagi Kardiff universiteti faoliyati haqida ma'lumot berdi. Uning so'zlariga ko'ra, Yevropada Britaniya tibbiyoti eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Bugun esa britaniyalik mutaxassislar

turli qo'shma tadbirlar orqali samarqandlik hamkasblari bilan o'z bilimlarini baham ko'rishga tayyor.

Kardiolog Mayvand Sher ta'kidlaganidek, 2021-yilda hokim bilan uchrashib, uning ko'magidan so'ng Samarqand shahri-ning Qorasuv massivida xususiy tibbiyot markazi qurishga qaror qilgan va hozirda loyiha yakunlanish bosqichida. Mehmonlar ko'plab masalalarni hal etishda ko'rsatgan yordami uchun viloyat rahbariga minnatdorlik bildirdi.

O'z navbatida Erkinjon Turdimov ushbu hamkorlik Samarqandda tibbiyot sohasida yangi imkoniyatlar ochishiga umid bildirdi va viloyat hokimligi bu borada qonun doirasida ko'mak berishga tayyorligini ta'kidladi.

Uzumchilikda Oltiariq tajribasidan foydalaniladi

Joriy yilning 27-iyul kuni Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida Oltiariq tumanidagi "Xayrullo Bahrom Boymatov" fermer xo'jaligi uzumzorida bo'ldi. Tumanning uzumchilik tajribasini yuqori baholagan Prezidentimiz hududlarimizdagi iqlimi uzumchilikka mos tumanlarda Oltiariq tajribasi asosida uzum yetishtirish va tokzorlarni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar bergandi. Vazifalar ijrosi doirasida aynan shu fermer xo'jalik uzumzorida hududlardagi soha rahbarlari ishtirokida ko'rgazmali seminar tashkil etildi.



Bundan 10-15 yil oldin ham Oltiariq uzumchilikda bunday yuqori natijaga erishmagan va soha yetakchilari qatorida e'tirof etilmadi. Sohaga e'tibor va davlat darajasida qo'llab-quvvatlash natijasida bugun tumanda yetishtirilayotgan "Rizamat ota", "Kelin barmoq", "Husayni", "Shaharangul" va boshqa nomdagi uzumlar xorijda ham xaridorini topgan. 2017-yilda Oltiariqda jami 13 gektar tokzor mavjud bo'lgan. Respublikamizda uzumchilikni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor tufayli Farg'ona viloyatida paxta va g'alladan yetarli hosil olinmagan baland-past maydonlar uzumchilikka ixtisoslashtirildi. Natijalar esa ko'zni quvontiradi.

Ikki kunlik seminarda viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Xudoyberdiyev boshchiligidagi viloyatimiz vakillari ham ishtirok etdi. Ular ko'rgan tajribalarni viloyat hududlarida ommalashtirish, iqlimi mos tumanlarda uzumchilikni rivojlantirish borasida alohida rejalarni ishlab chiqdi.

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirda viloyatimizda 48529,6 ming gektar uzumzor mavjud va ushbu maydonlardan 2022-yilda 625 ming 371 tona uzum olingan.

Viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi esa 2023-2024-yillarda viloyatda uzumchilikni rivojlantirish, bo'sh turgan maydonlardan samarali foydalanish va tokzorlarni kengaytirish rejalarni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, dala chetlari, kollektor bo'ylaridagi 5373 gektar bo'sh maydonlar xo'raki, kishmishbop, sanoatbop tok ko'chatlari ekiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, buning uchun 161,2 million so'm mablag' talab etiladi va 6448 ming dona ko'chat xazirasi shakllantirildi.

Rejaga asosan joriy yil yakuniga qadar 7850 gektar, 2024-yil yakuniga qadar jami 20 ming gektar yerda yangi uzumzorlar barpo etiladi. Shuningdek, 196 mahalladagi 32366 xonadon ixtiyorida bo'lgan 2518 gektar tomorqada tokzorlar yaratiladi. Bu bilan qo'shimcha daromad manbai va asosiysi, yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Tumanlarda bu borada yangi rejalarni ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etish choralarini boshlangan.

28-31-iyul kunlari Oltiariq tumanida respublika ko'rgazmali seminarida Xitoy-

poyon mahallasi raisi va "Gulnigor dalasi" fermer xo'jaligi boshlig'i bilan birgalikda ishtirok etdik, - deydi Jomboy tumani hokimining o'rinbosari A.Ikromov. - Oltiariqdagi o'nga yaqin xonadonning uzumchilik faoliyati bilan tanishdik. Xonadon sohiblari va boshqa mutaxassislar bilan suhbatlashib, tajriba almashdik. Mazkur ko'rgazmali seminardan kelib chiqib, tumanimizda ham sohani rivojlantirish uchun rejalarni belgilab oldik.

Jumladan, joriy yilning avgust oyida tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va uzumchilikni tashkil qilish istagidagi tashabbuskorlar, fermer va dehqon xo'jaliklari boshliqlari, shuningdek, boshqa tashkilot va korxonalar vakillarini Oltiariq tumaniga qisqacha muddatli xizmat safariga yubormoqchimiz. 2023-2026-yillarda 2 ming gektar yerda uzumzorlar tashkil etish uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqyapmiz. 2023-yil yakuniga qadar 450 gektar va keyingi yillarda ham aniq manzillari va muddatlari ko'rsatilgan aholi tomorqalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining ekin maydonlari atroflari, ariq va zovurlar chetlari hamda yo'l yoqalariga tok ekishni rejalashtiryapmiz. Shuningdek, tumandagi "Ahmadjon Qurbonov", "Guliston", "M.Bozorov", "N.Esonturdiyev" va "M.Ulug'bek" massivlaridagi ball-boniteta past bo'lgan, bog'dorchilikka mo'ljallangan yerlardan 500 gektar maydon uzumchilik uchun ajratiladi. Oltiariq tumanidan tajribali dehqonlarni jalb etish niyatidamiz. Shuningdek, tumandagi "Bog'bon in-vitro" laboratoriyasi va akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi va boshqa ta'lim muassasalarining malakali olimlari hamda boshqa ko'chatchilik xo'jaliklari mutaxassislarini jalb etib, aholi va fermerlar ishtirokida tizimli ravishda o'quv seminarlar tashkil etmoqchimiz. Uzumchilikning daromadli va foydali tomonlarini targ'ib etuvchi o'quv materiallari, videoroliklar ishlab chiqish, tegishli tarmoqlar orqali tarqatish va tashviqotning boshqa usullaridan foydalangan holda aholi o'rtasida targ'ibot ishlari olib boramiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Bir guruh faollar "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

Samarqand shahridagi "Do'stlik uyi"da ko'p yillik samarali mehnatlari uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, milliy madaniy markazlari vakillarining bir guruhiga "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini topshirish marosimi o'tkazildi.

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari ishtirok etgan tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari Bahodir Qodirov so'zga chiqib, taqdirlangan hamyurtlarimizning millatlararo do'stlik va totuvlikni ta'minlashdagi xizmatlarini e'tirof etdi va samimiy qutladi.

- Ushbu mukofotga loyiq topilganidan benihoya shodman, - dedi Past



Darg'om tumanidagi 13-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi Aida Avetisyan. - Sababi, tili va dinidan qat'i nazar yurtimizdagi har bir inson O'zbekistonni o'z Vatani deb biladi. Shular qatorida

men ham mamlakatimiz rivoji uchun daxldorlik tuyg'usi bilan yashayapman. Bu e'tirof meni bundan keyin yanada shijoat bilan ishlashga undaydi.

Baxtiyor MUSTANOV.

Haydovchilik guvohnomasi "OLIB BERMOQCHI" ekan

Avvalroq Payariq tumanida yashovchi fuqaro "ortiqcha sarsongarchiliklarsiz" haydovchilik guvohnomasini olib berish uchun 500 dollar talab qilib, 300 dollarini olayotgan vaqtida qo'lga olingandi.

Bu galgi holat Bosh prokuratura huzuridagi departamentning Qo'shrabot tumani bo'limi tomonidan DXX xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda fosh etilgan.

Aniqlanishicha, "G.A." MCHJga qarashli avtomaktab o'qituvchisi S.X. fuqaro S.A.ga ushbu avtomaktabda o'qiganligi haqida hujjat tayyorlab, haydovchilik guvohnomasi olib bermog'chi bo'lgan. Buning evaziga 700 dollar olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) va 228-moddasi (hujjatlar, shtamp, muhr, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.



Viloyatimiz aholisi soni o'ttiz ikki yil ichida

1 million 881 ming

800 kishiga ko'paydi.

Ya'ni, 1991-yil viloyatda

2 million

256 ming 100 kishi

yashagan bo'lsa,

2023-yilning 1-aprel holatida

4 million 137 ming 900

kishi istiqomat qilmoqda.

**OB-
HAVO**



6-9-AVGUST KUNLARI KUCHLI YOMG'IR YOG'ISHI MUMKIN

"O'zgidromet" xabariga ko'ra, 6-9 avgust kunlari viloyatimizda havo harorati pasayadi. Sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda shamol esib, kechalari 20-23 daraja iliq, kunduzi 31-33 daraja issiq bo'ladi.

Respublikamizning tog' oldi va tog'li hududlarida, jumladan, viloyatimizning Urgut, Samarqand, Bulung'ur, Nurobod, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Payariq, Jomboy, Ishtixon tumanlarida sel-suv toshqin hodisalari yuzaga kelishi kutilmoqda.



Narpayda XI-XII asrlarga oid turarjoy hamda xumdon topildi

Narpay tumanida 60 dan ortiq arxeologik va arxitektura yodgorliklari aniqlangan bo'lib, ular davriylik jihatidan paleolit, antik, ilk va so'nggi o'rta asrlarga oid. Ya'ni, vohaning antropogen landshafti qadim ajdodlarimiz tomonidan doimiy o'zlashtirib borilganligidan guvohlik beradi.

Tumanning eng qadimgi yodgorliklari bo'lgan Qo'tirbuloq hamda Zirabuloq makonlari ibtidoiy odamlar tomonidan o'rta va so'nggi paleolit davrlaridanoq o'zlashtirilgan. Mazkur yodgorlikdan topilgan paleolit davriga oid topilmalarning asosiy qismi tosh qurollarni tashkil etib, ularni yasashda xomashyo sifatida ko'proq diorit va kvarsli galkardan foydalanilgan. Yodgorliklarda faunistik qoldiqlar ham mavjud bo'lib, ularda yovvoyi ot, ho'kiz, qulon va bug'u suyaklari uchraydi. Yaqinda tumanning Toshko'prik mahallasidagi Rabinjon yodgorligidan yana bir topilma - turarjoy o'rni va xumdon topildi.

Xo'sh, Rabinjon o'zi qanday arxeologik yodgorlik? - O'rta asrlar yozma manbalarida keltirilishi-cha, Rabinjon Xurosonga boradigan katta yo'l (Samarqand va Buxoroni bog'lovchi "Buyuk Ipak yo'li" tarmog'i) ustida joylashgan Markaziy Sug'dning yirik shaharlaridan biri bo'lgan, - deydi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Amridin Berdimurodov. - Shahar 150 gektar maydonni egallagan bo'lib, ark, shahriston va rabotdan tashkil topgan. Shahristonda aholi, arkda hukmdor, rabotda hunarmandlar va harbiylar yashagan. Manbalarda Rabinjon aholisi ko'p bo'lgani, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq bilan shug'ulanganligi qayd etilgan. Ayniqsa, gilamlari bilan juda mashhur bo'lgan. Ko'hna kent Dobusiyadan 5 farsah (1 farsah 6-8 kilometr), Samarqanddan esa 12 farsah masofada bo'lgan. Mazkur shahar o'rni hozirda Narpay tumani Toshko'prik mahallasiga to'g'ri keladi. Joriy yilning iyul oyidan Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti arxeologik o'tryadi tomonidan yodgorlikning shahriston va rabot qismlarida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida XI-XII asrlarga oid turarjoy o'rni hamda xumdon borligi aniqlandi.

Yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazishmalarning ilmiy tahliliga ko'ra, Rabinjon o'z-o'zidan vujudga kelib qolmagan. Yodgorlik miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida paydo bo'lgan. U ko'hna Oromijon shahri xarobasi o'rnida qad ko'targan. O'rta asrlarda qadimiy Rabinjonga qarashli bo'lgan Sakon yoki Askon, Sankabot, Furfora va Karzon kabi qishloqlarning nomlari ham uchraydi. Samarqand-Buxoro karvon yo'lida bunyod etilgan bu shaharning shahriston qismi ilk o'rta asrlarda mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan va IX asrning oxiri XII asrning o'rtalarida shahar yanada kengaytirilgan. Yaqinda topilgan turarjoy ham aynan shaharning shahriston qismiga to'g'ri keladi.

Rabinjon yodgorligidan topilgan turarjoy shahriston qismi bo'lib, 5,5x3,5 metr o'lchamda barpo etilgan, - deydi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti doktoranti Navro'z Alimov. - Devorlarning qalinligi 80 santimetrdan 1 metrgacha yetsa, eshikning kirish qismi 90 santimetrdan tashkil etadi. Shuningdek, polning ustki qismida diametri 44 santimetrdan o'choq bo'lib, xonadonni istitishda foydalanilgan. Bu yerdan topilgan sopol buyumlar, tangalar, g'isht va turarjoy qoldiqlarining o'lchamidan ma'lum bo'ldiki, topilmalar qoraxoniylar davriga, ya'ni XI-XII asrlarga oid deb davrlashtirildi.

O'rganishlarimiz natijasida shaharning janubiy-sharqiy qismidan XI-XII asrlarga oid sopol buyumlar tayyorlangan xumdon topildi, - deydi institut katta ilmiy xodimi Alisher Sandiboyev. - Ikki yarusli xumdonning, pastki qismida olovxona bo'lgan, yuqori qismida esa sopol pishirilgan. Afzuski, xumdonning sopol pishiriladigan qismi bizgacha saqlanib qolmagan. Xumdonning olovxona qismi o'tinni tejash maqsadida to'liq g'isht bilan yumaloq shaklda qurilgan. Rabinjon shahridagi kulochilik namunalarining aksariyat qismi o'sha davrlarda aynan shu xumdon tayyorlangan.

Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, mazkur yodgorlikdan olingan sopol bo'laklari IV-V asrlardan XIX asrlargacha mansubdir. Shu bois bu yerda hali keng ko'lami tadqiqotlar olib borishimiz lozim.

Narpay tumanida qadimgi joy nomlarini aniqlash va mavjud arxeologik yodgorliklarda keng qamrovli qazishma ishlarining davom ettirilishi yur-timiz tarixini yanada chuqur o'rganish va anglash imkonini beradi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV, "Zarafshon" muxbiri.

O'z yumushlarim bilan Rossiya Federatsiyasiga chiqib kelmoqchiman, xorijga chiqish biometrik pasportini Davlat xizmatlari markazlari orqali olish tartibi haqida ma'lumot bersangiz.

Bu fuqarolarimiz tomonidan eng ko'p beriladigan savollardan biri. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish biometrik pasporti Davlat xizmatlari markazlari orqali berish yo'lga qo'yilgan bo'lib, viloyatimizning Samarqand shahar va Past Darg'om tumanlarida joriy qilingan.

Eslatib o'tish lozim, fuqarolar xorijga chiqish biometrik pasportini olish bo'yicha eksterritorial tamoyil (qaysi hududda yashashidan qat'i nazar) asosida istalgan Davlat xizmatlari markazi yoki ichki ishlar organlariga murojaat qilishi mumkin.

Bunda fuqarolarga 300 ming so'm, voyaga yetmaganlar uchun 264 ming so'm davlat boji va ko'rsatilgan davlat xizmati uchun 9 ming 300 so'm to'lov (har ikki holatda ham) undiriladi.

Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishda fuqaro shaxsan Davlat xizmatlari markaziga (ma'lumotlarni yig'ish punktiga) kelib, quyidagi hujjatlarni:

Xorijga chiqish pasporti

qayerda va qancha vaqtda beriladi?

harbiy guvohnomaning yoki chaqiruv uchastkasida qayd etilganli guvohnomasining nusxasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi (harbiy xizmatga majburlar uchun); ota-onalar, vasiylar (homiylar) ning notarial tasdiqlangan roziligi (voyaga yetmaganlar uchun);

notarial tasdiqlangan roziligi zarur bo'ladi. Ular vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan hollarda — vafot etganlik to'g'risidagi guvohnomaning yoki sudning shaxsni bedarak yo'qolgan, deb e'tirof etish haqidagi qarorining notarial tasdiqlangan nusxasi taqdim etiladi.

O'zbekiston hududida xorijga chiqish biometrik pasporti ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan hujjatlar qabul qilib olingan kundan boshlab 10 ish kunida beriladi.

Shuningdek, fuqaroga va unga hamrohlik qiluvchi shaxs (shaxslarga) xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish muddati O'zbekistondan zudlik bilan chiqib ketishni talab qiladigan holatlarda - shoshilinch davolanish zarurligini tasdiqlovchi davlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan berilgan hujjatlar, yaqin qarindoshining og'ir kasalligi yoki vafot etganini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, chiqish huquqiga cheklov bo'lmagan taqdirda 5 ish kundan oshmasligi lozim.

O'tkir HAKIMOV, viloyat adliya boshqarmasi shu'ba boshlig'i.



fuqaroga hamrohlik qiluvchi shaxsning notarial tasdiqlangan majburiyati (voyaga yetmaganlar uchun) topshiradi.

Doimiy yashash uchun xorijga chiqishda o'z ota-onalarining va turmush o'rtog'ining, birgalikdagi nikohdan voyaga yetmagan bolalari bo'lsa, sobiq turmush o'rtog'ining



Kattaqo'rg'on tumanida faoliyat ko'rsatayotgan "Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 12 turdagi energiya tejakor transformator ishlab chiqarilmoqda.

Korxonaya yiliga 1200 dona mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Ayni paytda korxonamizda 90 nafar ishchi mehnat qilyapti, - deydi ish boshqaruvchi Sardor Rustamov. - Xitoy texnologiyasi yordamida oyiga o'rtacha 100 dona transformator ishlab chiqarilmoqda.

Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.

Keksalarning salomatligini tiklashda o'z vaqtida ko'rsatiladigan sifatli tibbiy xizmatning o'rni benihoya katta. Shu maqsadda joriy yil 1-avgustdan 1-sentabrgacha yurtimizda "Keksalar salomatligi oyiligi" o'tkazilmoqda.

Keksalar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi

Ayni damda viloyatimizda 350 mingdan ortiq pensiya yoshidagi nuroniylar umrguzaronlik qilmoqda, - deydi viloyat "Nuroniy" jamg'armasi raisi o'rinbosari Donoqul Toshboyev. - Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan ushbu aksiya davomida nuroniylar bir oy davomida o'zlarini istiqomat qilayotgan hududda malakali shifokorlar tomonidan belgilangan jadval asosida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Tibbiy tekshiruv natijalariga muvofiq, aniqlangan kasalliklar bo'yicha davlat ko'magida keksalarning sog'ligini mustahkamlash choralarini ko'riladi. Buning uchun dastlab tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladigan nuroniylar ro'yxati shakllantirilib, ular yoshi, jinsi va salomatlik holatidan kelib chiqib, tegishli guruhlariga ajratiladi. Shundan so'ng aksiyaga jalb qilingan keksa yoshli insonlar maxsus tibbiy brigadalar tomonidan profilaktik va chuqurlashtirilgan tekshiruvlardan o'tadi.



Ushbu tibbiy ko'riklar so'ngida o'tkir va surunkali xastalikka qayd etilgan katta yoshli bemorlar birlamchi bo'g'indagi kunduzgi shifoxonalarda ambulator sharoitda, stasionar yordamga muhtoj qatlam esa tuman, shahar hamda viloyat tibbiyot muassasalarida davolanishi belgilangan. Shuningdek, yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga ehtiyoji bor keksa yoshli bemorlarga viloyat va respublika muassasalariga imtiyozli yo'llanmalar beriladi. O'z navbatida olis va chekka hududlarda sayyor tibbiy brigadalar tomonidan chuqurlashtirilgan tekshiruvlar o'tkaziladi.

S.MARDIYEV.

YO'L O'RTASIDAGI QUDUQLAR EGASIZ(MI?)



Gazetamizning joriy yil 25-iyuldagi 88-sonida "Yo'l o'rtasidagi quduqlar. Ularni kim, qanday quradi, kim nazorat qiladi?" sarlavhali tanqidiy maqola e'lon qilingandi.

Maqolada Samarqand shahridagi yo'llarda o'rnatilgan quduq (kolodets)larning yo'ldan past yoki aksincha o'rnatilgani yo'lovchi, ayniqsa, haydovchilarga katta noqulayliklar tug'dirayotgani tanqid qilingandi. Shuningdek, bu borada izoh olish uchun mavzuga aloqador soha tashkilotlaridan Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi, "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ va viloyat avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi rahbarlariga rasmiy xat orqali murojaat qilgandik. Va nihoyat, so'rovimizga ikki haftadan ortiq vaqt o'tib, ulardan javob xatlari keldi.

YO'LDA BO'LSA HAM QUDUQLAR BIZGA QARASHLI EMAS

Mavzu yuzasidan yuborgan so'rovimizga viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i A.O'roqov imzosi bilan yuborilgan javob xatida shunday yozilgan: "Avtomobil yo'llarida joylashgan quduqlar asosan shahar va tuman markazlarining ichki ko'chalarida. Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalar shahar, tuman obodonlashtirish boshqarmalariga qarashli va 2007-yil 2-oktabrdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonunga asosan, shahar va tuman hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, avtomobil yo'llarida o'rnatilgan quduqlarning nazorati va ularga xizmat ko'rsatish ishlari tegishli tashkilotlar ("Samarqand suv ta'minoti" MCHJ, Hududiy elektr tarmoqlari, Hududgaz ta'minoti, Uztelekom va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridagi quduqlar Prezidentning 2019-yil 19-dekabrda "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, boshqarmamiz tomonidan belgilangan texnik shartlar va tegishli xulosalar asosida yuqorida ko'rsatib o'tilgan tashkilotlar tomonidan o'rnatiladi".

YO'L O'RTASIDAGI QUDUQLAR OBODONLASHTIRISHGA TEGISHLI EMAS

Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi bo'lim boshlig'i J.Saidov tahririyatga quyidagilarni ma'lum qilgan: "Quduqlarning o'rnatilish tartibi, nazorati, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya tarmog'i bilan bog'liq bo'lgan masalalarga suv ta'minoti, telekom, elektr tarmoqlari, gaz ta'minoti bo'limlari mas'ul. Doimiy tozaligini nazorat qilish, saqlash, qopqoqlarini almashirish to'g'ridan-to'g'ri ularning vakolatiga kiradi".

Yuqoridagi har ikki tashkilotning javobida ham bu quduqlarga xizmat ko'rsatuvchilar orasida boshqa tashkilotlar bilan birga suv ta'minot xizmati keltirilgan. "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ rahbari K.Yusupov mavzu yuzasidan quyidagilarni ma'lum qildi.

AHOI AYBDOR, ISTE'MOLCHINING MAJBURIYATI BOR, QOPQOQLAR O'G'IRLANADI

"Yangi qurilish obyektlarining quduqlariga qopqoq smeta hujjatlariga asosan quruvchi tomonidan o'rnatiladi. Nazorat obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar qurilish tashkilotida bo'ladi, so'ng Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalarini to'g'risida"gi qarori kuchga kiradi. Qarorda iste'molchilarning majburiyati belgilab berilgan.

Ya'ni, ular shartnoma shartlarini bajarish:

- o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suvi va kanalizat-

siya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlashi, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Yer usti suv oqimlarining quduqlar yonidan oqib yuborilishini ta'minlashi kerak.

Hozirgi kunda Samarqand shahri bo'ylab o'rnatilgan quduqlarning hammasi ham ichimlik va oqova suv quduqlari emas, aloqa kabellari, elektr uzatkichlari quduqlari ham mavjud. Biz o'z balansimizdagi quduqlarni imkon darajasida nazorat qilib boramiz. Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tmoqchiman, har yili aholi tomonidan yuzdan ziyod qopqoqlar o'g'irlanishi korxonaga moddiy va ma'naviy zarar yetkazilishiga sabab bo'lmoqda.

Javoblarni o'qingiz. Aslida biz nega yo'l o'rtasidagi quduqlar asfalt yo'ldan baland yoki past qilib bo'yilgani, o'rnatish tartiblari va nazorat qilish borasida ma'lumot olmoqchi edik. Lekin javob yo'llagan tashkilotlar o'zlarini javobgarlikdan soqit qilishga urinishgan, boshqa holatda barcha quduqlarga texnik xizmat ko'rsatish imkonini yo'qli bildirilmoqda. Afzus!

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

	Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Arzi berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan bino va inshoot (P.Nurmanov FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati.	Payariq tumani "Tomoyrot" MFY	0,07901	170,40	292 117 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
2	Bo'sh turgan bino va inshoot (O.Umarov FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani "Madaniyat" MFY, Choshtepa qishlog'i	0,105	180,92	271 208 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
3	Bo'sh turgan bino va inshoot (M.Sultonov FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Kattaqo'rg'on tumani Kattaming qishlog'i	0,11	61,5	213 000 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
4	Bo'sh turgan bino va inshoot (O'zbekiston FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Kattaqo'rg'on tumani Tavaroz qishlog'i	0,103	46	218 000 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
5	Bo'sh turgan bino va inshoot (M.Ulug'bek FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Kattaqo'rg'on tumani Oltibek qishlog'i	0,090822	43,66	175 700 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
6	Bo'sh turgan bino va inshoot (R.Maxmanov FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Paxtachi tumani "Ukrash" MFY	0,12	134,32	283 817 400,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
7	Bo'sh turgan bino va inshoot (Paxtakor FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Kattaqo'rg'on tumani Qiyot qishlog'i	0,11	87,1	247 000 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
8	Bo'sh turgan bino va inshoot (Zarafshon FYTSH)	"Maroqand neft baza" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Kattaqo'rg'on tumani, Mullokichkina qishlog'i	0,0396	42,03	129 400 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" aksiyadorlik jamiyatining "e-auksion.uz" sayti maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionga qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektning tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkga tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlarida ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov xujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosiga qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"iga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytida ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng savdo boshlanadigan kunda (vaqt-da) ishtirokchilar e-auksion.uz saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"iga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash"

so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionga qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqami beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining biron-tasi tomonidan tasdiqlanmasa, auksion auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolarning natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Dav-

lat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini qaytarish ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqashtirish bo'limi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

(66) 233-96-64, 99-447-17-70

Faks: (66) 233-73-54.

Facebookdagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv

Web-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmog'idagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI
VA MEHMONLAR DIQQATIGA!

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqatlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) ko'payib ketganligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:



Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlari talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioalaqatlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) va ulardan foydalanish qat'iy an etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalajitli ta'sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan

olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi; Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlar tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan, mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioalaqat hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarini ko'rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) va ulardan foydalanish qat'iy an qilinishi ushbu qarorda ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqatlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar)dan foydalanish o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini ko'riladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar bo'yicha Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani "Yoshlik qo'rg'oni" MFY. Telefonlar: (66) 616-43-45, 616-44-15.

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" Davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK), Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioalaqatlarini bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioalaqatlarini bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasi Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkiqlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkiqlar vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini ko'riladi.

Radioelektron vositalarini Respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani "Yoshlik qo'rg'oni" MFY.

Telefonlar: (66) 616-43-45, 616-44-15.

Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati.

O'QISHGA TAKLIF ETAMIZ!

Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 2023/2024-o'quv yilida 5-sinfga hamda paralimpiya sport turlari bo'yicha 10-sinfga o'qishga taklif etadi.

Markazga xujjatlar qabuli 2023-yil, 1-avgustdan 21-avgustga qadar <https://my.spopt.uz> platformasi orqali 5-sinfga (dzyudo, og'ir atletika, taekvondo WT, yunon-rum kurashi, erkin kurash, milliy kurash, qilich-bozlik, suzish, stol tennisi, velosport, badiiy gimnastika) onlayn hamda paralimpiya sport turlari bo'yicha (para-dzyudo, para-taekvondo, para-yengil atletika, para akademik eshkak eshish) 10-sinfga oflayn tarzda amalga oshiriladi.

O'qishga kirish istagini bildirganlar tuman va shahar sport maktablarida dastlabki tayyorgarlikdan o'tgan iqtidorli o'quvchi-sportchilar bo'lishlari lozim.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar 2023-yil 24-26-avgustda o'tkaziladi.

Markazda barcha sharoitlar yaratilgan, o'quvchilar bepul yotoqxona va kunlik oziq-ovqat bilan ta'minlanadi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

(91) 524-78-07, (99) 739-71-70 raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Saidov Kaxor Rasulovichga (2021-yil 14-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Achilov Sayfitdin Salomovichga (2020-yil 15-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilshira Hasanovna notarial idorasida marhum Lukmanov Yuldashga (2022-yil 29-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilshira Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Mustafakulov Axat Nurullayevichga (2019-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afarov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Mustafakulov Axat Nurullayevichga (2019-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 4-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Muhiddinovi Giyosiddinga (2022-yil 27-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raximov Barotga (2018-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xalilov Asamiddin Alibayevichga (2023-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Xalilov Asamiddin Alibayevichga (2023-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI!

Fuqaro Murtazayev Xamidga qarashli Samarqand shahri Gagarin ko'chasi 99-uyning 8-xonadoni uchun berilgan kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro (marhum) Raximova Xayriga qarashli Samarqand tuman Xayimari Bolu mahallasida joylashgan uy-joy uchun berilgan kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahar iqtisodiy sudining 2023-yil 27-martdagi 4-1401-2202/248-sonli hal qiluv qaroriga asosan "O'zsanotqurilishbank" ATBning arizasiga ko'ra "Afrosiob Xosiyat begim makoni" mas'uliyati cheklangan jamiyati bankrot deb topilgan va unga nisbatan tugatishga doir ish yuritish boshlanganligi va ularning dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOTI

Fuqaro Raximnazarov Jasurbek Utkirovichning haydovchilik guvohnomasi (AG 1246292, 2023-yil 20-iyulda Kattaqo'rg'on tumani TRO'VA IOB tomonidan berilgan) Narpat tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: (93) 458-11-07.

Bugunning gapi

Inson taqdiri, kelajakdagi yutuqlari, kasb tanlashi, odob-axloqli bo'lishi oilaga bog'liq. Chunki farzandning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi. Shuning uchun ham oilada bolaning yoshligidan milliy urf-odat, udum, an'ana va axloqiy madaniyat haqidagi tushunchalarini shakllantirish lozim.

Bolangizni qanday tarbiyalayapsiz?

Albatta, bolaning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a'zolarining o'zligini qanchalik darajada anglaganligida, o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlariga ega bo'lgandagina to'raligicha ta'minlanadi.



Oila - tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat

irsiy xususiyatlarini, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar bola xulqi, ongiga singadi.

O'zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila budjetining ota-ona tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylangan qolgan. Tug'ilib o'sgan joyga alohida mehr-muhabbat tuyg'usi rivojlangan.

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oiladagi tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analardan g'ururlanish hisini uyg'otishdan iborat.

Bola o'z tarbiyasiga ko'ra g'oyat ta'sirchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatan bolalar o'z ota-onalarini yaxshiroq biladilar. Bola yoshligidanoq kattalarning harakatlari qat'ildir, ularning so'zlarini takrorlaydi. Kishi ulg'aygach, bolaligida

ko'rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida iz qoldirgan holda saqlanib qoladi.

Ma'lumki, bilimli, ma'rifatli bo'lish kishining kibr-havodan uzoqroq turishini ta'minlaydi, o'g'itlarda insonning kibr-havodan uzoq bo'lishi atrofdagi kishilar bilan ijobiy munosabatni o'rnatish olish uchun zamin hozirlaydi. Ilm sari intilish qutlug', ezgu ish sanaladi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqlni rivojlantirishdir. Chunki aqli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'g'it-nasihatni tezda o'z ongiga singdirib oladi. Inson zehning o'tkirligi, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagi o'ljani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan tezligidir. Oqil odam zehning tezligi qush parvozigacha qiyoslanadi.

Aqli, bilimli kishilar behuda gaplarga ahamiyat bermaydi, befoйда, o'zgalarga ziyon yetkazuvchi ishlarni amalga oshirmaydi. Nojoiz berilayotgan hadyalar uchmaydi. Amalga oshirayotgan har bir harakati evaziga in'om-ehson kutmaydi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash xususiyatlaridan yana biri xushxulqlikdir. Bilim va hunar egasi bo'lish, ezigulik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaat uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat hisoblanadi.

Olimjon TO'XTAYEV, Samarqand viloyati pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi.

Muay-tay sharqona yakka kurash jang san'atlarida eng qiyini hisoblanib, texnikasi sportchiga uzoq, o'rta va yaqin masofada teng darajada yaxshi jang qilish imkonini beradi. Viloyatda ushbu sport turi bilan uch mingdan ortiq sportchi shug'ullanadi.

Joriy yilning o'tgan davrida samarqandlik sportchilar muay-tay bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida 98 ta oltin, 95 ta kumush, 201 ta bronza, jahon chempionatida 2 ta kumush 1 ta bronza medallariga sazovor bo'ldi. Sportchilar orasida payariqlik O'g'it To'rabekova hamda oqdaryolik Suhrobjon Suyunov murabbiyi Sitora Bobokalonova boshchiligidagi bir necha marta viloyat, respublika va

MUAY-TAY BO'YICHA CHEMPIONLAR KO'PAYMOQDA



mintaqaviy musobaqalarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

- Maydonga birgina o'zim uchun emas, ota-onam, ustozlarim, yurtdoshlarim menga bildirgan ishonchni oqlash, Vatani sharafini himoya qilish uchun tushaman. Bu har bir sportchining eng katta maqsadi, - deydi O'g'it



To'rabekova. - 15 yoshimdan muay-tay bilan shug'ullanaman. 2021-yilda respublika terma jamoasiga qabul qilinganman. Faoliyatim davomida besh karra O'zbekiston chempioni va xalqaro turnirlar sovrindori bo'lganman. Shu yil yutuqlarim e'tirof etilib, Sport ustasi darajasi berildi. Bunday e'tibor va e'tirof shijoatimni

oshirdi, musobaqalarda yur-timiz bayrog'ini baland ko'tarishga harakat qilyapman.

- Besh yildan buyon muay-tay bilan shug'ullanaman, -deydi to'rt karra O'zbekiston chempioni, sport ustasi Suhrobjon Suyunov. - 2019-yildan buyon O'zbekiston terma jamoasi safidaman. 2021-yilda sport ustasi bo'lganman. Erishgan yutuqlarimda ustozim Sitora Bobokalonovaning xizmati beqiyos. U kishiga shogird tushib, ilk bor O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritganman. Shundan keyin terma jamoaga qabul qilindim, chempionatlarda g'olib va sovrindor bo'ldim. Hozir avgust oyining oxirida o'tkaziladigan O'zbekiston chempionati va Keyingi xalqaro turnirlarga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

F.RO'ZIBOYEV.

Munosabat

Muammoli holat nazoratga olindi

Biroq yozgi ta'tilni isloh qilishga hojat yo'q

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining gazetamizning shu yil 20-iyuldagi 86-sonida chop etilgan "Uch oylik yozgi ta'til zaruratmi yoki an'ana? Yoxud hamma biladigan, lekin hech kim shug'ullanmaydigan muammo xususida" sarlavhali maqola yuzasidan bergan munosabati mazmunini shunday tushunish mumkin.

Unda yozilishicha, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoq faollari va ziyolilar tomonidan 3 oylik yozgi ta'tilni isloh qilish masalasida turli fikrlar bildirilmoqda. Yozgi ta'til muddati mamlakatimizning iqlim sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, bu davr o'qituvchilar navbatma-navbat dam olishi va salomatligini tiklashi uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning jismonan chiniqishida ham yoz faslining ahamiyati katta. Bundan tashqari, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish, maktablarda ta'mirlash ishlarini olib borish uchun yoz fasli eng ma'qul payt hisoblanadi.

Maqolada Payariq tumanidagi sog'lomlashtirish maydonchalarini o'rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar ham tilga olingan edi. Boshqarma ayni masala nazoratga olingani hamda tuman mas'ullari ogohlantirilganini ma'lum qildi.

Munosabatda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda viloyatdagi 66 ta maktabda

sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil qilingan. Ularga har bir mavsumda 3360 nafardan ziyod o'quvchi, mavsum boshidan buyon 13980 nafar o'quvchi qamrab olingan. Sog'lomlashtirish maydonchalarida sport, san'at va kitobxonlik yo'nalishidagi 330 dan ziyod to'garak faoliyat yuritadi. Jarayonda yoshlarning xalq o'yinlari bilan tanishishi, yo'l harakati qoidalarini o'rganishi, ijod bilan shug'ullanib, dunyoqarashini kengaytirishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, viloyatda 17 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabi faoliyat olib bormoqda. Maktablarda 7 ta yo'nalishda 1420 ta to'garak tashkil etilgan. Ularga viloyat bo'yicha 45231 nafar o'quvchi qamrab olingan. "Barkamol avlod" bolalar maktablarining to'garaklari umumta'lim maktablari, maxsus maktab-internatlar, "SOS" O'zbekiston bolalar mahallalari va mahallalarda ham tashkil etilgan. Ularda jami 1445 nafar pedagog xodim faoliyat olib bormoqda.

MUZQAYMOQ

FOYDALIMI YOKI ZARARLI?



Muzqaymoq, qoida tariqasida, sanoat usulida tayyorlanadi. U asosan sut yoki qaymoq, shakar, suv va quyuqlashtiruvchi moddadan iborat. Bir porsiya muzqaymoqning kaloriyasi 100 dan 400 kkalgacha bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich sut va boshqa tarkibiy qismlarning yog' miqdoriga bog'liq.

MUZQAYMOQ FOYDASI

Ba'zilar uchun muzqaymoq tetiklashtiruvchi, xushxo'r desert bo'lsa, boshqalar uni yuqori kaloriyalii va zarur mahsulot deb hisoblaydi. Ammo muzqaymoq ham boshqa mahsulotlar kabi foydali va zararli xususiyatga ega.

KALSIY MANBAI

Muzqaymoq inson tanasi uchun zarur makroelementlardan iborat sutli mahsulotdir. Mushak-skelet tizimining rivojlanishi va mustahkamlanishida muhim bo'lgan kalsiy, yurak-qon tomir tizimida zarur magniy va kaliyni o'z ichiga oladi. Meva va ziravorlardan iborat muzqaymoq A, S, Y vitaminlariga boy.

STRESSNI QUVADI

Muzqaymoq iste'mol qilish asabiylashtirish darajasini kamaytiradi. Boshqa shirinliklari singari u ham stressga qarshi endorfin ishlab chiqaradi.

OVQAT HAZM QILISHNI YAXSHILAYDI

Yogurtga asoslangan shirinlik ichak mikroflorasini normalashtirib, sog'lom oshqozon-ichak traktiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bo'lganlar uchun sut mahsulotlarini ehtiyotkorlik bilan iste'mol qilgan ma'qul, albatta.

VAZNNI OSHIRMAYDI

Bo'yoq va ta'm beruvchi qo'shimchalar qo'shilmagan, kaloriyasi past mahsulotni me'yorida iste'mol qilish vaznni oshirmaydi. Buning uchun ishlatilgan mahsulotlar ro'yxatini ko'zdan kechirish zarur. Agar tarkibida tabiiy mahsulot, meva va rezavorlar bo'lsa, vazn ortishidan xavfsizramay, muzqaymoqni iste'mol qilish mumkin. Boshqa shirinlik va pishirilardan farqli o'laroq, uning kaloriyasi past bo'ladi.

ZARARI

Ortiqcha vaznli yoki semirishga moyil, oshqozon-ichak tizimi kasalligi, qandli diabeti bo'lganlar muzqaymoqdan tiyilgan ma'qul. Shuningdek, muzqaymoqdan keyin birdan issiq ichimlik ichish tavsiya etilmaydi. Harorat keskin o'zgarishi tish emaliga salbiy ta'sir qiladi.

MUZQAYMOQ TOMOQ OG'RIG'INI TUZATADIMI?

Tomoq og'riganda muzqaymoq iste'mol qilish foydali, degan fikr bor. Bu aslida noto'g'ri. Shirinlik kasallikdan xalos bo'lishga yordam bermaydi, aksincha, vaziyat yomonlashishi mumkin. To'g'ri, ko'pincha tomoq og'rig'i shilliq qavatning shishishi bilan birga keladi va terapevtik amaliyotning dastlabki bosqichlarida sovuqdan foydalaniladi.

G.XOLDOROVA tayyorladi.

Aziz ijodkorlar!

Samarqand viloyati hokimligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat madaniyat boshqarmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi viloyat bo'limi, viloyat "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi, viloyat teleradiokompaniyasi hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlab "Eng ulug', eng aziz" an'anaviy tanlovining viloyat bosqichini e'lon qiladi.

Tanlovga **"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!"** degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan asarlar - materiallar qabul qilinadi.

"Eng ulug', eng aziz" tanlovi g'oliblari quyidagi nominatsiyalar bo'yicha mukofotlanadi:

- yozuvchi va shoirlar badiiy asarlari, jurnalistlarning publitsistik nashrlari;
- bosma ommaviy axborot vositalari xodimlarining ijodiy ishlari;

"ENG ULUG', ENG AZIZ" TANLOVIDA ISHTIROK ETING!

- ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan veb-saytlardagi internet-jurnalistika materiallari;
- televideniya va radio ijodkorlarining materiallari;
- tasviriy san'at, foto asarlar va dizayn ishlari;
- san'atkorlarning yurtni madh etuvchi kuy va qo'shiqlari.

Har bir nominatsiya bo'yicha uchtadan o'rin ajratiladi.

Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

- muallif to'g'risida ma'lumotnoma (obyektivka);
- muallifning fuqarolik pasporti nusxasi;
- nomzodning manzili va bog'lanish telefon raqamlari.



"Eng ulug', eng aziz" tanloviga marhamat!

Tanlovga **2022-yilning 1-avgustidan 2023-yilning 1-avgustigacha** bo'lgan davrda rasman chop etilgan adabiy-badiiy asarlari, gazeta-jurnallar va internet nashrlarida e'lon qilingan maqolalar, radio va televideniya kanallarida e'fira uzatilgan materiallar, namoyish etilgan tasviriy san'at ishlari

va foto asarlar, kuy-qo'shiqlar qog'oz ko'rinishida hamda elektron shaklda **2023-yilning 14-avgustigacha** bo'lgan muddatda qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblari Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga bag'ishlangan tadbirlar doirasida aniqlanadi hamda qimmatbaho sovg'a va diplom bilan mukofotlanadi.

Tanlovda qatnashish uchun taqdim etiladigan namunalari ijodiy uyushmalardan, OAV jamoalaridan, sohalar bo'yicha nodavlat-notijorat tashkilotlaridan, shuningdek, mustaqil ijodkorlardan elektron hamda bosma shaklda Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, viloyat Matbuot uyida qabul qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun **66-233-91-69, 66-235-28-40, 66-233-62-64, 66-233-43-57, 66-229-53-75** raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

Tashkiliy qo'mita.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 399 nusxada chop etildi. Buyurtma 424. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda